



Nodirjon OTAQULOV,

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD

E-mail: nodirorient@gmail.com

O'zMU professori, f.f.d A.Mamatov taqrizi asosida

## KOLLOKVIAL FRAZEOLOGIZMLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

### Annotatsiya

Mazkur maqolada kollokvial frazeologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari emotsiyonal va ekspressiv potensialini ochishdagi pragmatik komponentning roli aniqlangan, nutqi munosabatda pragmatik potensialning amalga oshishiga sabab bo'ladigan struktur-semantik omillar tahlil qilingan. Kollokvial frazeologizmlarning ichki shaklini aniqlashtirishda va ularning ma'nolarini ochib berishda, shuningdek og'zaki kommunikatsiyada faolligi hamda kollokvial frazeologik birliliklarning semantik o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** kollokvial, frazeologizm, kommunikatsiya, struktur-semantik, emotsiyonal, ekspressiv, tagtil, sheva.

## ХАРАКТЕРНЫЕ ЧЕРТЫ КОЛЛОКВИАЛЬНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ

### Аннотация

В данной статье раскрывается специфика коллоквиальных фразеологизмов, выявляется роль их pragmaticального компонента в раскрытии эмоционально-экспрессивного потенциала исследуемых фразеологических единиц, анализируются структурно-семантические факторы, способствующие реализации pragmaticального потенциала в речевых отношениях. При выяснении внутренней формы коллоквиальных фразеологизмов, выявлении их значений, а также их активности в устном общении был анализирована семантическая специфика коллоквиальных фразеологизмов.

**Ключевые слова:** коллоквияльный, фразеологизм, коммуникация, структурно-семантический, эмоциональный, экспрессивный, диалект.

## CHARACTERISTIC FEATURES OF COLLOQUIAL PHRASEOLOGICAL UNITS

### Annotation

This article reveals the specifics of colloquial phraseological units, reveals the role of their pragmatic component in revealing the emotional and expressive potential of the studied phraseological units, analyzes the structural and semantic factors contributing to the realization of pragmatic potential in speech relations. When clarifying the internal form of colloquial phraseological units, identifying their meanings, as well as their activity in oral communication, the semantic specificity of colloquial phraseological units was analyzed.

**Keywords:** colloquial, phraseology, communication, structural-semantic, emotional, expressive, dialect.

**Kirish.** Jahon tilshunosligida jonli og'zaki munosabat tilini o'rganishga sezilgan intilishni hamda tillarda kollokvial frazeologizmlar hosil qilishning sezilarli darajadagi tarqalganligini hisobga olib, bu birliklarni ancha mufassal ko'rib chiqishning zaruriyati shak-shubhasizdir.

Maqolada keltirilgan ma'lumotlar tillarni o'qitishning amaliyotida qo'llash maqsadga muvofiq tuyiladi, chunki o'quvchilar nafaqat kitobiy-adabiy tilni, balki jonli so'zlashuv tilini ham egallashlari kerak. Ish jarayonida tuzilgan lug'atlar so'zlashuv tilining uslublarni hosil qiluvchi elementlarga o'qitish maqsadida qo'llanmalarni tayyorlashda qo'llanla boshlashlari mumkin, bu elementlarni egallah munosabatning norasmiy sohasida kommunikatsiyaning adekvat shakllarini ta'minlaydi.

Kollokvial frazeologik birliklar hozirgi lug'atlarning leksik korpusiga kirmasligi, shuningdek muayyan kontekstdan tashqarida amaliy jihatdan kelib chiqmasligi mumkin. Biroq ularning tadqiqi katta qiziqish namoyon qiladi, chunki hatto individual frazeologizmlar hosil qilinishining va qo'llanilishining qandaydir qonuniyati kuzatiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** So'zlashuv tilining xilma-xil aspektlarini o'rganib chiqish bilan bir nechta tadqiqotchilar shug'ullanganlar, bulardan Yu.M. Skrebnev, Sh.Safarov, A.Mamatov, M.Hakimov, A.Ko'chiboev, A.M.Vinokurov, L.Soudek, V.D.Devkin, K.M.Ryabova, E.A. Petru, T.G. Popova, Y.A.Nikitina, I.N. Maxova, N.V.

Makarova, T.A.Dunaevskaya kabi tilshunoslarni sanab o'tishimiz mumkin.

Kollokvial leksikaning oraliq holatini tilning va shevalarning territorial variantlarini tadqiq qilish bilan shug'ullangan A.M.Vinokurovning tadqiqotida ham ko'rish mumkin [3]. Uning asosiga chek tilshunosi L.Soudekning stratifikatsiyasi qo'yilgan [17]. Bizning tadqiqotimiz uchun bu muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu kollokvializmlarning boshqa leksik qatlamlarga nisbatan o'rni to'g'risidagi Yevropa lingvistikasi nuqtai nazarining yorqin ko'rgazmasi hisoblanadi, shuning uchun uni ishimizga kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shevalar xuddi so'zlashuv tiliga o'xshab, jargon so'zlarni ham qamrab oladi, bu periferiyaviy leksik qatlamlarga tegishlidir. Kollokvial leksikaning periferiyaviy leksik qatlamlarga yaqinligiga qaramasdan, har holda so'zlashuv tili tilning bir qatlami sifatida baholanadi. Kollokvializmlar neytral leksikadan keyin keladi, bu so'zlashuv leksikasiga xos bo'lgan qandaydir stilistik tus berilganlikning mayjudligini tasdiqlaydi.

O'zbek leksikografik amaliyotida biz kollokvial so'zlar uchun xarakterli bo'lgan quyidagi belgini aniqladik, so'zlashuv nutqi, og'zaki nutq, ya'ni norasmiy suhabatga xos bo'lgan, bu fransuzcha *informal* ga to'g'ri keladi, so'zlashuv tilida, ya'ni so'zlashuv tiliga xos bo'lgan, bu fransuzcha *colloquial* ga to'g'ri keladi. Xuddi o'sha leksemalarning lug'at

maqolalarini solishtirishda sodda so'zlashuv tili va so'zlashuv tili leksikografik adapiyotda aniq belgilanmaydi.

So'zlashuv tili muammosi lingvistikada g'arb tilshunosligida o'rganiganidek yaxshi o'rganilgan emas. Tadqiqotchilarining e'tiborini har xil o'zbek shevalarini o'rganish ko'proq tortadi. Bu yana shu bilan bog'liqki, hozirgi o'zbek tili, uning lug'at tarkibi murakkab tarixiy va ijtimoiy-lingvistik jarayonning mahsulini ifodalaydi, unda tilning o'z-o'zidan yuzaga keladigan rivojlanishi jamiyatning ongli aralashuvi bilan uyg'unlashadi.

O'zbek tilini hozirgi bosqichda xarakterlaydigan yana bir o'ziga xos xususiyat – (o'ta, juda) soddalashtirilgan (beadab) leksikaning va jargon so'zlarining so'zlashuv leksakasi razryadiga o'zgarishi va ularning kundalik kommunikatsiyada erkin qo'llanilishidir. "Jo'n (oddiy)" leksikaning hozirgi so'zlashuv tiliga suqilib kirishi shu bilan bog'liqki, har xil xususiy televizion va internet kanallarning hamda radio stansiyalarining ommaviyligi kuchayayapti, ular o'zlarining mahsulotini senzuraga duchor qilmaydi. Xilma-xil realiti-shouular ishtirokchilarining nutqlari ayniqsa yoshlarning doirasida taqlid qilish uchun namunaga aylanayapti.

Shunday qilib, tilning rivojigidi asosiy yo'nalishlarni ko'rsatib o'tishi hamda kundalik so'zlashuv tilini o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblash, bu til hozirgi paytda eng muhim o'zgarishlarni boshidan kechirayotganligidan darakdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tilshunoslarning ishlardira so'zlashuv tili tushunchasi bir qator jiddiy ravishda farqlanadigan darajada talqin qilingan. L.V.Sherba so'zlashuv tilini tilda mavjud bo'lgan normaning ba'zi bir modifikatsiyalarining majmui sifatida baholaydi. N.Yu.Shvedova so'zlashuv tilini (yoki unda qo'llaniladigan til shakllarini) qandaydir ob'ektiv jihatdan muvjud tizim sifatida sharhlab beradi. V.D.Devkin [4] so'zlashuv tilini erkin, o'z-o'zidan yuzaga keladigan, og'zaki, asosan situativ jihatdan bog'liq, ko'proq dialogik va bir qadar jo'n (oddiy) nutq deb ta'riflaydi. N.A.Shigarevskaya so'zlashuv tili deganda umummilliy tilning funksional-uslubiy turlaridan biri deb tushunadi, u aholi o'qimishli qismining norasmiy sharoitlardagi munosabatining vositasi hisoblanishini ko'rsatib o'tadi [13].

"So'zlashuv tili" tushunchasi talqinlarining rang-barangligini biz hodisani o'zining murakkabligi bilan bog'laymiz. Keyingi paytda amaliyotda so'zlashuvchilikka bag'ishlangan ko'p fundamental ishlar paydo bo'ldi. Kollokvializmlar stilistik aspektida va nutq madaniyati planida o'rganiladi [1], tadqiqotchilar so'zlashuv tilining kommunikativ va funksional jihatiga qiziqish namoyon qildilar [10].

Mavjud tadqiqotlar so'zlashuv tilining tanlab olingen darajasida ishlashining ayrim struktur o'ziga xos xususiyatlarini va spesifikasini tasvirlashga e'tibor qaratadi. G.N.Zikovaning ishida kollokvial birliklarning o'ziga xosligini aniqlovchi hozirgi kollokvializmlarning differensial belgilari va ularning boshqa stilistik qatlamlarning leksikasidan farqi qarab chiqiladi [5]. Kollokvial leksik birliklar ishlashining qonuniyatlarini va adapiy-kitobiy normalarning so'zlashuv normalariga yaqinlashtirishga intilishni biz A.A.Xarkovskayaning ishida uchratamiz [14]. K.M.Ryabova, so'zlashuv tagtilining o'ziga xosligini (spesifikasini) ajratib ko'rsatar ekan, mutlaqo spesifik birliklarning – kollokvializmlarning – minimal darajada jo'n, estetik ma'nolilikning shkalasida bevosita neytral so'zlardan keyin joylashgan leksik birliklarning mavjudligini ko'rsatib o'tadi. Kollokvializmlarning so'zlashuv tagtil bilan bog'liqligi ularning norasmiy munosabatning sohaga funksional biriktirilganligidan va ularning rasmiy-ishchanlik vaziyatida qo'llanishining noo'rningidan iborat. K.M.Ryabovaning ta'kidlashicha, til sohiblarining ijtimoiy statusi nutq muomalasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, ma'lumot darajasi esa

ko'p jihatdan u yoki boshqa stilistik o'zgarib turadiganlarning tanlovinci belgilaydi [12].

**Tahlil va natijalar.** Kommunikantning ijtimoiy mansubligi til vositalarining variativligiga ta'sir qiladigan yagona sabab hisoblanmaydi, buni L.P.Krisinining tadqiqoti ham ko'rsatib o'tadi. Muallifning fikriga ko'ra, vaziyatga va munosabatning sohasiga qarab til umumiyligining vakillari turli, ushbu ijtimoiy-kommunikativ tizimning komponentlari hisoblangan va bir-birlariga qo'shimcha taqsimot munosabatida bo'lgan tagtillarni ishlatalardilar [6]. Demak, norasmiy munosabatda tilning har xil funksional uslublariga aloqador bo'lgan leksik birliklar kuzatilishlari mumkin. Biroq kollokvializmlarning norasmiy munosabat sohasiga biriktirilganligi shubha keltirib chiqarmaydi va *colloquial* so'zining ta'rif bilan tasdiqlanadi: *colloquial – of, relating to, or characteristic of conversation especially of familiar and informal conversation* [18].

Kollokvialistika ob'ektining tabiatini va chegaralarini aniqlash maqsadida tilning tagtil tabaqalanishining muammosini qarab chiqar ekan, Yu.M.Skrebnev quyidagi xulosalarni chiqaradi: 1) til alohida tizimlarning, ya'ni tilning jamiyat hayotidagi global qo'llanish sohasiga qaraganda, nutq faoliyatining ancha tor sohaloriga xizmat ko'rsatadigan cheklangan qo'llanilishli tillarning majmui sifatida baholanishi kerak; 2) tagtillar – bu nutq sohalaring ekstralengvistik belgilari bo'yicha mustaqil tarzda ajralib turadiganlardan hosil qilingan; 3) tagtillar qisman tilning umumi yadrosida (neytral sohasida) birga qo'shilgan; 4) uslub – bu tagtilning differensial xarakteristikasi, uning tagtillarning ushbu nomenklaturasida boshqalari bilan kesishmaydigan spesifik sohasi, nutq sohasi keyinchalik qismalgarda ajralish xususiyatiga va bir-biriga yaqin sohalar bilan birlashish qobiliyatiga ega, shuning uchun so'zlashuv tilining sohasini ajratib ko'rsatish shartli hisoblanadi. Shunday ekan, kollokvialistikating ob'ekti kundalik-so'zlashuv munosabatining sohasiga xizmat qiladigan tagtil hisoblanadi, uning tadqiqotining haqiqiy predmeti esa – bu tagtil spesifik sohasining strukturasidir [13].

V.A.Xomyakov so'zlashuv tilini qarab chiqishga ikkita yondashuvni ajratib ko'rsatadi. U "so'zlashuv" terminini shunday belgilaydi: bir tomondan, "spoken" (so'zlashuv) so'zini bu so'zning eng keng tushunishda ifodalaydi (lotincha: "colloquium" (suhbat) "colloqui" (suhbatlashmoq, gaplashmoq, so'zlashmoq)dan; *sot* – birga (together), *loqui* – gapirmoq (to speak). Boshqa tomondan, "so'zlashuv" (*colloquial*) termini ancha tor – "norasmiy" (*informal*) ma'noda qo'llaniladi [15].

G.A.Orlovning ta'kidiga ko'ra, struktur jihatdan so'zlashuv tilining ko'pfunksionalligini va bir xil emasligi, uning markazida adapiy normaga tortadigan til vositalari bo'lgan, periferiyaga yaqinroqda esa – normativ birliklar va sodda so'zlashuv tili, jargon, sleng va boshqa noadabiy hosilalar o'rtasida sinxron ko'rib chiqishning o'tish zonasida boshqalari turgan ierarxik struktura sifatida ta'riflaydi [9].

Mavjud materialning tahlilida biz shunday xulosaga keldikki, "so'zlashuv tili" tushunchasi uning til uslublarini funksional tizimdagisi chegarasini belgilash munosabati bilan tadqiqotchilar orasida munozarani keltirib chiqaradi. So'ng'ra so'zlashuv tilining nutq turlarining tizimidagi o'rnini ko'rib chiqiladi.

N.V.Makarovaning fikricha, so'zlashuv tilini adapiy til bilan taqqoslab ko'rilar ekan, "kundalik tilning ma'lum jo'nligini (oddiyligini) qayd qilish kerak emas, chunki turmush mavzusi albatta jo'nlikni ko'zda tutmaydi. Sodda so'zlashuv tili chegaralarining beqarorligi – so'zlashuv tilining asosiy jihatlaridan biridir. Kollokvializm faqat neytral yoki dabdbabalil til fonida ahamiyatlidir, kundalik tilda u sezilarli emas" [8].

T.G.Popova qayd qiladiki, "so'zlashuv tili hozirgi vaqtida nafaqat turmushda, balki intellektual kommunikatsion

sohalar deb ataluvchilarda ham kodifikatsiyalashtirilgan adabiy tilning ilgari ustunlik qiluvchi nutq shakllari bilan bir qatorda munosabatning to'la xuquqli quroliga aylanayapti" [11].

Shunday qilib, ko'pchilik mualliflar so'zlashuv tili ma'lum darajada adabiy tilga qarama-qarshi qo'yilgan, degan fikrga qo'shilishadilar, shuning uchun biz bunday deganda nima tushunilishi ustida to'xtalishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Adabiy til – o'qimishli kishilarning tilidir, ularning madaniy saviyasi ijtimoiy obro'ga ega. Bu tildan ibrat oladi, u namunaviy hisoblanadi. Demak, adabiy til deganda normallashtirilgan til tushuniladi, uning normalari to'g'ri va hamma uchun majburiy bo'lgan sifatida idrok qilinadi va u shevalarga hamda sodda so'zlashuv tiliga qarama-qarshi qo'yiladi [2].

So'zlashuv tili mohiyatining xilma-xil talqinlari sababli, O.A.Laptevaning so'zlariga ko'ra, "o'zining genetik, funksional va ekspressiv-stilistik belgilari bilan bir qator g'oyat bir-birdan farq qiladigan hodisalarini birlashtiradi" [7], biz T.G.Popovaning izidan borib so'zlashuv tili muammosining quyidagi asosiy talqinlarini ajratishimiz mumkin:

1) so'zlashuv tili – bu adabiy tilning eng muhim funksional-stilistik turlaridan biridir;

2) so'zlashuv tili adabiy tilning bir turi sifatida;

3) so'zlashuv tilida adabiy so'zlashuv tili ajralib turadi, u birliklarning spesifik to'plamiga va ular ishlashining spesifik qonunlariga ega bo'lgan alohida til tizimi hisoblanadi; bu tizim kodlashtirilgan adabiy tilga adabiy til ichida taqqoslab ko'rildi (qarama-qarshi qo'yiladi) [11].

Lingvistikada ikkita yo'naliш mavjud, ularning har birida so'zlashuv tili oraliq tur hisoblanadi:

*adabiy til – so'zlashuv tili – shevalar;*

*adabiy til – so'zlashuv tili – sodda so'zlashuv tili.*

Shunday qilib, biz ikkita oppozitsion guruhi larga ega bo'ldik. Ularning har biridagi so'zlashuv tilining statusini qarab chiqamiz.

#### ADABIYOTLAR

1. Андрюхина Т.В. Стилистические возможности сложного слова и способы их реализации в тексте: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - М.: 1987. - 22 с.
2. Ахманова О.С. Синтаксис как диалектическое единство коллизии и коллокации. - М.: Изд. Моск. ун-та, 1969. - 183 с.
3. Винокуров А.М. Словообразование в территориальных вариантах и диалектах современного английского языка. - Калининград: 1988. - 83 с.
4. Девкин, В.Д. Вовлечение внутренней формы слова в механизм экспрессии и комизма. М.: 1994. - С. 9-19.
5. Зыкова Г.Н. Дифференциальные признаки современных английских коллоквиализмов-существительных. М.: 1983. - 16 с.
6. Крысин Л.П. Владение разными подсистемами языка как явление диглоссии. - М.: 1976.-С. 62-63.
7. Лаптева О.А. К вопросу о месте современной русской устно-разговорной речи в кругу явлений литературного языка. М.: 1968.-№1,-С. 38-45.
8. Макарова Н.В. Коллоквияльные субстантивные композиты в современном немецком языке: дисс. ... канд. филол. наук / Н.В. Макарова. - М.: -281 с.
9. Орлов, Г.А. Современная английская речь. М.: Высшая школа, 1991.-240с.
10. Петру Э.А. Социо-прагматические и структурно-семантические особенности экспрессивной коллоквияльной лексики. Пятигорск: 1993.-235 с.
11. Попова Т.Г. Коллоквияльные сложные слова английского языка: дисс. ... канд. филол. наук / Т.Г. Попова. - М.: 1998. - 281 с.
12. Рябова К.М. Коллоквияльная лексика современного английского языка: дисс. ... канд. филол. наук / К.М. Рябова. - Горький: 1979. - 192 с.
13. Скребнев Ю.М. Введение в коллоквиалистику / Ю.М. Скребнев. - Саратов: Изд-во Саратовск. ун-та: 1985. - 210 с.
14. Харьковская А.А. Лингвистические исследования разговорной речи. - Куйбышев: 1984. - 177 с.
15. Хомяков В.А. Введение в изучение сленга - основного компонента английского просторечия / В. А. Хомяков. - Вологда: 1971. - 104 с.
16. Soudek L. Shorter Oxford Dictionary / L. Soudek. - Oxford, 1967. - P. 18.
17. Webster's New Dictionary, 2004:103.

Birinchi oppozitsion guruhi, uchta tushunchalarning lingvistik turli-tumanligini e'tiborga olib, quyidagi holatlarni hisobga olish zarur:

1) adabiy til va so'zlashuv tili bitta tilning funksional turlarini (tagtillarini) ifodalaydilar, sheva lingvistik jihatdan faqat ma'lum arealda ishlaydigan boshqa tilni ifodalaydi va shunday qilib, bitta tilning ikkita tagtili amalda geografik jihatdan cheklangan sohada tarqalgan boshqa tilga qarama-qarshi qo'yiladi;

2) tarixiy jihatdan hamda haqiqatda lingvistik jihatdan mustaqil til bo'lgan sheva, xususan, mustaqil tilning tagtillarga ajralish alomatiga egalik qiladi, garchi shevaning stilistik qatlamlarga ajralishi, umuman olganda tilning qatlamlariga o'xshab unchalik muhim bo'lmasada, har bir sheva sohasida, kam deganda, so'zlashuv tilidan farqli, ushu shevaning alohida tagtilini ishlataluvchi folklor mavjud;

3) adabiy til uni shevaga qarama-qarshi qo'yilganda territorial biriktirilganlikka ega emas va umumiy tarqalganlikka egalik qiladi.

Shunday ekan, *adabiy til – so'zlashuv tili – sheva* qarama-qarshi qo'yilishi haqiqatan sheva tushunchasini shevaning so'zlashuv tagtili tushunchasi bilan almashtiradi, biroq "sheva" termini ma'nosining bunday torayishida haqiqatan har xil til kollektivlariga xizmat ko'rsatadigan til kichik tizimlarining taqqoslanishi g'ayriqonuniy tuyiladi.

**Xulosa va takliflar.** Shuni ta'kidlash mumkinki, pragmatik vazifalarni amalga oshirish kollokvial leksikaga qo'shimcha nozik farq bag'ishlaydi; sub'ektiv omilning ta'siri ostida kollokvializmlar meliorativ yoki peyorativ tus oladi. Kollokvializmlarning ekspressiv xarakteri haqidagi qoidanining to'g'riligidagi ushu xususiyat absolyut hisoblanmaydi. Ekspressiv birlifklar bilan bir qatorda so'zlashuv leksikasida kollokvial frazeologizmlar mavjud bo'ladi, ularning strukturasiga ekspressiv komponent kirmaydi. Kollokvial frazeologizmlar nominatsiyaning eng tejamlı usuli hisoblanadi, o'zlarini ifoda planida anchagina lo'nda hamda mazmun planida hajmli namoyon qiladi, bu bilan zamonaviy inson munosabatining ehtiyojlarini qondiradi.